

Эти принципы должны систематически применяться воспитателем.

Если дети дошкольного возраста играют в новые творческие игры, стараются показать свои и своих друзей способности и таланты, то это знак того, что они занимаются творчеством. Творческие игры с дошкольниками помогают воспитывать подрастающее поколение, развивать его творческие способности, развивать воображение и уважать богатые национальные, культурные и исторические ценности нашего народа.

Библиографический список

1. "Maktabgacha pedagogika" F. R. Qodirova, SH. Q. Toshpo`latova, N. M. Qayumova, M. N. A`zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent-2019
2. Murodova "O`yinchoqlar yasash san`ati" Toshkent 2008y.
3. R. Mavlonova, M. Satbayeva. O`quv ustaxonasida amaliy mashg`ulot. T. Ilm-ziyo. 2011 y.
4. Antipina Ye. A. Teatralizovannaya deyatel`nost` v detskom sadu. M., 2003
5. Kutsakova L. V., Merzlyakova S. I. Vospitanie rebenka-doshkol`nika: razvitogo, obrazovannogo, samostoyatel`nogo, initsiativnogo, nepovtorimogo, kul`turnogo, aktivno-tvorcheskogo.-M.: Vlados, 2004.
6. Qo`girchoq teatri tarixi. M. Qodirov S. Qodirova «Talqin» Toshkent 2006 y.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

N. Nurmatova

*O'qituvchi,
Namangan viloyati Uychi tumani,
Uychi, Namangan, Uzbekistan*

Summary. This article discusses the interests of elementary school teachers who are just starting to learn, control their interest in the lesson and control their skills. The importance of didactic games, the importance of their choice and the ability to choose the right type are also important.

Keywords: didactic games; plot; game exercises; contests.

O'qituvchining maktab o'quvchilari bilan ishlash jarayoni murakkab hisoblanadi. Sababi, ular bilan yoshi, dunyoqarashi, qiziqisihi, jinsiga qarab muomala qilish bilan birgalikda dars o'tish vaqtida ham ayni shu jihatlarga jiddiyroq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, ta'lim tizimida, jumladan, boshlang'ich sinf darslarida pedagogik texnologiyalarni qo'llashning nazariy hamda amaliy asoslarni yaratish zarurdir. Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimi yosh avlodni barkamol, ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgan. Axborot oqimi keskin ortgan, turli yangiliklar hayotimizga tezkorlik bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangilikni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha

oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonning asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishiga yo'l ochilishi maqsadga erishish yo'lidagi to'g'ri qadamdir. Bu borada yangi texnologiya elementi hisoblanmish interfaol usullardan keng foydalanish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayoni takomillashadi.

Didaktik o'yinlarni tanlashda o'quvchilarga bilim va tarbiya berishning quyidagi tartib-qoidalariga rioya qilish talab etiladi: didaktik o'yinlarni tanlash va ulardan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, pedagogik jihatdan tayyorgarligi va bilim saviyasi hisobga olinadi. Tanlangan har bir o'yin o'quvchilarga tizimli bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga ularning barkamol bo'lib yetishishiga va ruhan tetik o'sishiga qaratilgan bo'lishi lozim. Shuningdek, didaktik o'yinlarni tanlashda ta'limning aniq maqsad va vazifalari asos qilib olinadi. Ular ta'lim mazmunini aniqlashtirishning muhim vositalaridan bo'lib, o'quvchilarda o'qish motivini, istagini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, didaktik o'yinlar tuzilishiga ko'ra ikki asosiy guruhga bo'linadi; Syujetli - rolli o'yin va o'yin - mashqlar. Syujetli - rolli o'yin biror syujetga asoslanadi, rollarga bo'linadi, o'yin xarakteri va qoidasi bo'ladi. Masalan "Kema marshrutini aniqla", "Telefon", "Telagraf", "To'p kimga beriladi?" kabilar. O'yin - mashqlariga faqat alohida o'yin elementi kiritilgan bo'lib, topishmoq, biror qoida yoki o'yinning biror harakati olinadi. Bunday o'yinlarga "Zanjir", "Jim", "Matematik estafeta", "Doiraviy misollar", "Uychani to'ldir" kabilar kiradi. Bu tor o'yinlarni tashkil qilish oson, uni o'tkazishga kamroq vaqt ketadi, lekin o'quvchilarda syujetli - rolli o'yinlar o'yin - mashqlariga qaraganda ko'proq qiziqish uyg'otadi.

O'yindagi o'quvchilarning o'quv - bilish faoliyatiga ko'ra o'yinlarni yana bir necha turga ajratish mumkin: O'quvchi faqat ijrochi sifatida qatnashadigan o'yinlar: bunda o'quvchilar namunada ko'rsatilganidek harakat qiladilar. Masalan, o'tilgan biror mavzuni esga olib, takrorlashni talab qiladigan o'yinlar. Bunda o'quvchilarning fonetik bilimlari mustahkamlanadi. Bunday o'yinlarga "Matematik baliqchi", "Eng yaxshi uchuvchi", "Parashyutni qo'ndir" o'yinlari kiradi.

Biror bir narsani o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar - bunday o'yinlarda o'quvchilar berilgan so'z va iboralarni ularga mantiqiy bog'liq bo'lgan boshqa so'z va iboralar bilan hatto qisqa matnlar bilan almashtiradilar. Masalan: bunday o'yin turlariga "Matematik estafata", "Zanjir", "Doiraviy misollar" kabilar hamda o'z-o'zini va bir-birini nazorat qilishga o'rgatuvchi o'yinlar, "Nazoratchilar", "Bilmasvoyni tekshirish" va hokazolar ham kiradi.

Izlanish va ijodiy talab qiluvchi o'yinlar 4 - guruhga kiritiladi. Bunday o'yinlarda o'quvchilardan topqirlik, mustaqillik, ijod qilish kabilar talab qilinadi. Masalan: "Topishmoqni top", "Samalyo'tning yo'lini aniqla" kabi o'yinlar shular jumlasidandir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslari xususiyatidan kelib chiqib, o'yin - musobaqalarni va olimpiada o'yinlarini ajratish mumkin. Musobaqa -

o'yinida topshiriqlarni bajarishning tezligi va to'g'riligi e'tiborga olinsa, olimpiada o'yinlarida topshiriqning mazmuni, bajarilish sifati birinchi o'ringa qo'yiladi. Har bir didaktik o'yin o'z navbatida quyidagi komponentlardan tuziladi: o'yin maqsadi, qoidalari, jihozi, mazmuni, natijasi. O'yin maqsadi - unung ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarishi bilan aniqlanadi. Maqsad o'quvchilarning bilimiga nisbatan aniqlanadi va biror bilimlarni esga tushirish, foydalanish, bilib olish va boshqalar bilan aniqlanadi. O'yin qoidalari - o'yinni olib borish va unga qatnashish tarkibini aniqlab beradi. Qoidalar o'yin maqsadiga mos holda o'quvchilar faoliyatini tarkibga solish uchun kerak bo'ladi. O'yin mazmuni - o'quvchilarning bajarishi kerak bo'lgan harakatlari bilan aniqlanadi, xorijiy til darslarida bu harakatlar ko'proq so'z va so'z birikmalarini, ya'ni iboralarni topishdan iborat bo'ladi. O'yin jihozi: o'yinni o'tkazish uchun kerak bo'lgan predmet –real va shartli predmetlar, kartochna va ko'rgazmalardan iborat. O'yin natijasi - qo'yilgan vazifaning bajarilishi bilan aniqlanadi. Bunda albatta natija o'quvchilarni qoniqtirishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qitishni samaraliroq tashkil etish uchun o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishda interfaol metodlarning foydasi juda kattadir. Bunday metodlar har bir o'quvchini darsga jalb qilish, ularni o'z fikrini bildirishga, o'rtoqlari bilan fikr almashishga, atrofda fikrlarga munosabat bildirishga o'rgatish imkonini beradi, motivatsiyani oshiradi. O'qituvchi izlanishga, yangilikni qo'llashga harakat qilsa, bu o'quvchilar bilimini mustahkamlash ishida o'z samarasini beradi. Shu bilan birgalikda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qitiladigan darslardagi o'yinlarni o'ynash bilan birga o'qish, yozish ko'nikmalari ham shakllanadi.

Bibliografik roy'xat

1. Alimov Sh. S. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari fanidan ma'ruzalar kursi. - Andijon, 2009
2. Alimov Sh. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noan'anaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlar. - Andijon. 2010

